



## MAHALLIY XOM ASHYOLAR ASOSIDAGI ZAMONAVIY SUPERPLASTIFIKATORLAR HAMDA FAOLLASHTIRILGAN BARXAN QUMIDAN TAYYORLANGAN TSEMENT BETONNING XOSSASI

Turgunbayev U.J.

Abdullayev U.X.

Sharipova D.T.,

Raximova N.B.

Teshabayeva M.B.

Toshkent davlat transport universiteti

(Toshkent, Uzbekiston)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7835471>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-aprili 2023 yil

Ma'qullandi: 15-aprili 2023 yil

Nashr qilindi: 17-aprili 2023 yil

### KEY WORDS

Superplastifikator, kompleks qo'shimchalar, faollashtirilgan barxan qumlar, beton, polikarboksilat efirlari, zolounos, po'lat eritish chiqindilar.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada xozirgi kunda kompleks qo'shimchali faollashtirilgan barxan qumlari asosidagi tsement betonlaridan foydalanish usullari ko'rsatib o'tilgan. Zamonaviy qurilishda yangi avlod betonlarining yuqori fizik-mexanik va ishlash xossalari kuchaytirishda kimyoviy qo'shimchalar hamda barxan qumlaridan qo'shib foydalanishning samarali yo'llari xaqida ma'lumot berilgan.*

Respublikamizda qurilish materiallari sohasini rivojlantirishda innovatsion g'oyalardan foydalangan holda tabiiy xom ashyolarni iqtisod qilish, mahalliy xom ashyolardan ishlab chiqarishda keng foydalanish imkonini beruvchi qurilish materiallari sanoatiga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini ikki barabarga ko'paytirish" bo'yicha tegishli vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan kompozitsion materiallarni ishlov berilgan barxan qumlarini foydalangan holda tarkibini aniqlash, fizik-mexanik hamda kimyoviy xossalariiga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi [1-2].

Zamonaviy qurilishda yangi avlod betonlarining yuqori fizik-mexanik va ishlash xossalari kuchaytirishda kimyoviy qo'shimchalardan qo'shib foydalanmasdan tasavvur qilish mumkin emas. Qurilishda bunday kompozitsiyalar va ular asosidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun reologik xususiyatlarga ta'sir qilish, strukturaning shakllanishi va havo kirish jarayonlarini nazorat qilish imkonini beradigan keng turdag'i qo'shimchalar qo'llaniladi [3-6].

Shuningdek, bunday muammolarni hal qilishda kompleks qo'shimchali sement betonlarini xossalarni nazorat qilish va kerakli xossa ko'rsatkichlariga ega bo'lgan kompozitlarni yaratishda faollashtirilgan barxan qumlari hamda mineral to'ldiruvchi moddalardan foydalanish xam samara beradi [4-6].

Xozirgi kunda kompleks qo'shimchali sement betonlaridan foydalanish avvalgiga davrlarga nisbatan sezilarli ko'paygan. Mahalliy va xorijiy olimlarning izlanishlari natijasida shu narsa mu'lum bo'ldiki, sement kompozitlarining xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan va uning xossalari o'zgartiradigan eng samarali omil plastiklashtiruvchi qo'shimchalardan foydalanishdir [3-6].

Kompleks qo'shimchali sement betonlarini tayyorlashda mikroto'ldirgichlardan foydalanishning ta'siri quyidagicha tushuntiriladi [7-9]:

- inert mineral qo'shimchalar, asosan, betonning zichligi oshirish g'ovaklar sonining sezilarli darajada kamayishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, to'ldiruvchilarning zarrachalari shartli ravishda yopiladi;

- faol qo'shimchalar kalsiy oksidi bilan reaksiyaga kirishadi sement bog'lovchi yopishtiruvchi-yopishqoq kuchli ulanishlarni yaxshilash orqali amalga oshadi, bu "bog'lovchi+to'ldiruvchi" interfeysidagi o'zaro ta'sirlar ishlab chiqilgan kompozitsiyani sezilarli darajada mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Olimlarning olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, yuqori sifatli betonlarini olish uchun kimyoviy yoki mineral qo'shimchalarni alohida emas, balki kompleks shaklda ishlatish ancha samarali ekanligi aniqlandi [6-10]. Bundan tashqari, qo'shimchalardan foydalanishga bunday kompleks yondashuv ham bog'lovchining o'rtacha iste'moli bilan yuqori sifatli betonlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Shu nuqtai nazardan, turli xil tabiatdagi to'ldiruvchi moddalari bilan murakkab qo'shimchali sement betonining asosiy fizik-mexanik xususiyatlarini o'rghanish berilgan.

O'zbekistonning cho'lli hududlarida o'ta mayda barxan qumlari asosidagi beton keng qo'llaniladi. Mavjud standartlarga ko'ra qumning donadorlik tarkibi uning zich katta uyilma zichligini va eng kam bo'shliqda donalarining kompakt joylashuvini ta'minlaydi. Shamol ta'sirida (cho'l shamoli) vujudga keladigan (barxan) qumlarni betonlarda qo'llash chegaralangan. Chunki bu qumlar juda mayda bo'lib, donalari o'ta silliq yuzaga ega, bu esa ularning sement toshida birikishini yomonlashtiradi.

Eksperimental tadqiqotlarda Oxangaron sement zavodining M400 D0 markali portlandsementidan foydalanilgan. Mineral to'ldiruvchi sifatida Yangi Angren IES dan uchuvchi kul (UK) va Toshkent quyuv-mexanika zavodining (TQMZ) po'lat eritish chiqindilari (PECH) ishlatilgan. Sirtli faol modda sifatida, polikarboksilat superplastiklashtiruvchi (SP) POLIMIKS ishlatilgan [11-15].

Tadqiqot o'tkazish uchun uchta turdag'i kompozitsiyalarning bir qator namunalar tayyorlandi: nazorat va kompleks qo'shimchali (1-jadval).


## 1-jadval

**Beton qorishmasining o'rganilganlik tarkibi**

Nº	Beton sinfi	Konus sm	Sement, kg	Maydalangan tosh, kg fr. 5-20	Qum, kg $M_{cr}=2,7$	Faollashtirilgan harxan umumi kg	Suv, l	Zolo-unos, kg	Po'lat chiqarish chiqindilari, kg	Superplastifikator POLIMIKS, kg
1	B15	1-2	236	1220	700	13	188	-	-	-
2	B15	1-2	201	1220	780	10	130	33	-	1.89
3	B15	1-2	201	1220	780	10	130	-	35	1.89

Namunalarning siqilishga mustaxkamligi, zichligi, suvgaga chidamliligi, suvni singdirish kabi fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish standart usullar asosida amalga oshirildi. Beton namunalarini qattiqlashtirish normal sharoitda amalga oshirildi va 3, 7, 14, 28, 40, 120 sutkalik sinovdan o'tkazildi.

1-rasm shuni ko'rsatdiki, dastlabki 3 sutka ichida har xil turdag'i to'ldiruvchi moddalari bo'lgan murakkab qo'shimchali kompozitsiyalarning mustahkamlik xususiyatlari deyarli bir xil va nazorat tarkibi 28 % ga oshadi. 14 sutkalikda PECh+SP tarkibining kuchi ZU+SP modifikatori bilan to'ldiruvchiga nisbatan 8-12 % va nazorat tarkibi 25-28 % ga oshadi. Ushbu ko'rsatkichga ko'ra, beton sinfi B25, etalon esa B15 sinfga taaluqli bo'ladi.




**1-Rasm. O'rganilayotgan tarkibning siqilishga mustahkamligi tekshirish :**  
**1-nazorat; 2-ZU+SP; 3-SP+PECH**

Bizning fikrimizcha, tashqi ta'sir va to'ldiruvchi moddalar, ularning kiritilishi, bir

tomondan aralashtirish vaqtidagi suv miqdorini kamayishi boshqa tomondan, mikroto'ldiruvchilar va putsolan faolligini oshishi modifikatsiyalangan to'ldirgichlarning (faollashtirilgan barxan qumi) mustahkamligining sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi [16].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kompleks qo'shimchalar qotayotgan betonning suv shimuvchanligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. O'rganilayotgan tarkiblardan ZU+SP 14 sutkalik qotishda boshqa tarkiblarga qaraganda eng ko'p suv shimuvchanlikni namayon qildi.

Bu holat, tarkibdagi ikkilamchi g'ovaklikni hosil qiluvchi erkin, to'liq yonib ketmagan ko'mir zarralarining mavjudligi bilan bog'liq. O'rganilayotgan g'ovaklar asosan yopiq g'ovaklar ekanligi aniqlandi va ular materialning o'tkazuvchanligiga ta'sir o'tkazmaydi (2-rasm). Eng kam suv shimuvchanlikni SP+PECH tarkibi ko'rsatdi. Yuqorida ta'kidlanganidek bu holat katta g'ovaklarning kichik zarralar bilan to'sib qo'yish orqali yuzaga keladi [14].



## 2-Rasm. Tarkiblarning suvga chidamlilagini o'rGANISH:

**1-nazorat; 2-ZU+SP; 3-SP+SPO**

Suv o'tkazmaslik usulini o'rGANISH shuni ko'rsatdiki, murakkab modifikatorlardan foydalanish g'ovaklik tuzilishini yaxshilaydi, g'ovaklar orqali bloklanadi, katta kapillyarlarning hajmini kamaytiradi va ularni geliya aylantirishga olib keladi.

### FoydalaniLIGAN adabiyotlar:

1. 2019-yil 23-maydag'i "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4335-sonli, 2019-yil 20-fevraldag'i "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-4198-son Qarorlari
2. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
3. Adilkhodzhaev A. I. et al. Features of continuous units forming of reinforced concrete products // "Online-conferences" platform. - 2021. - S. 1-4.

4. Adilkhodzhaev A.I., Kadirov I.A., Abdullaev U.K. SOME ISSUES OF MOISTURE TRANSFER IN CONCRETE. – 2021.
5. Ulugbek Abdullaev\* and Urinbek Turgunbayev, About the properties of ash-filled concrete and JV GLENIUMSKY 504, E3S Web Conf. Volume 264, 2021 International Scientific Conference “Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering” (CONMECHYDRO - 2021) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126402036>
6. Тургунбаев У.Ж. Наров Р.А., Абдуллаев У.Х. Использование Солнечной Энергии При Производстве Сборных Железобетонных Конструкций, European journal of life safety and stability (EJLSS) ISSN2660-9630, 2023 у., 99-120-bet, [www.ejls.indexedresearch.org](http://www.ejls.indexedresearch.org)
7. Turgunbayev U.J., Abdullayev U.X., Nazirov M.G'. Zamonaviy superplastifikatorlar hamda faollashtirilgan barxan qumlari asosidagi kompleks qo'shimchali sement betonlarining xossalari, Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture, Volume 3 Issue 1, Part 2 January 2023 ISSN 2181-2888, 2023, 42-45, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7559599>
8. Turgunbayev U.J., Abdullayev U.X., Nazirov M.G'. Barxan qumlari xossalari va ularni sinash usullari, Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture, Volume 3 Issue 1, Part 2 January 2023 ISSN 2181-2888, 2023, 47-52, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7559599>
9. Тургунбаев У.Ж., Р.А. НАРОВ, Ж.Г. РАШИДОВ. Улучшение свойств цемента изменением тонкости помола, “Архитектура, курилиш ва дизайн илмий-амалий журнали”, 2022, 164-168
10. Муртозоев Эшмурод Абдижаппорович, Жураев Охун Амон угли, Тургунбаев У.Ж., Микроарматурализация сухих строительных смесей волластонитом, “international conference on learning and teaching” 2022/7
11. Адилходжаев А.И., Кадиров И.А., Абдуллаев У.Х., Кудратов Б.Ш., О влияние комплексных-модифициров с наполнителями различной природы на свойств тяжелого бетона, Международная научно-техническую конференция на тему: Интеграция науки, образования и предприятий при производстве современных строительных материалов и изделий 27-28 октября 2022 года.
12. Адилходжаев А.И., Кадиров И.А., Абдуллаев У.Х., Ғовак тузилишга эга комплекс модификаторли цемент-бетоннинг баъзи хусусиятлари, Научный журнал транспортных средств и дорог, 2022 №3,
13. Адилходжаев А.И., Кадиров И.А., Абдуллаев У.Х., Замонавий суперпластификаторлар ҳамда тўлдирувчилар асосидаги комплекс қўшимчали цемент бетонларининг хоссалари, Научный журнал транспортных средств и дорог, 2022 №3
14. Ulugbek Khakimovich Abdullaev, Anvar Ishanovich Adilkhodzhaev, Ilkhom Abdullayevich Kadyrov, Some Aspects of the Effect of Porosity on Moisture Transfer in Concrete, INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGY, 2022 <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT>
15. Ulugbek Khakimovich Abdullaev, Anvar Ishanovich Adilkhodzhaev, Ilkhom Abdullayevich Kadyrov, Modification of cement concrete with complex additives based on superplasticizer and fillers of various nature, "Modern Materials Science: Topical Issues, Achievements and Innovations" (ISCMMSTIAI-2022), 2022
16. Ulugbek Khakimovich Abdullaev, Anvar Ishanovich Adilkhodzhaev, Ilkhom Abdullayevich Kadyrov, Some features of the formation of the porous structure of cement concrete with a complex, "Modern Materials Science: Topical Issues, Achievements and

Innovations" (ISCMMSTIAI-2022), 2022

